Qabul qilindi: 15.05.2025 Chop etildi: 30.06.2025 UDK: 821

O‘Z USLUBINI YARATOLGAN ADIB

Umirzaqova Oynura Hamid qizi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Beruniy tumani 56-umumta’lim maktabining Ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi

A WRITER WHO CREATED HER OWN STYLE

Umirzakova Oynura Hamid kizi, teacher of native language and literature at secondary school № 56, Beruni district, Republic of Karakalpakstan

ПИСАТЕЛЬ, СОЗДАВШИЙ СВОЙ СТИЛЬ

Умирзакова Ойнура Хамид кызы, учитель предмета Родной язык и литература 56-й общеобразовательной школы Берунийского района Республики Каракалпакстан

https://orcid.org/0009-0003-6520-2199
e-mail: oynura umirzaqova@gmail.com

Annotasiya: *Ushbu maqolada serqirra ijod sohibi, adib Tog‘ay Murodning yozuvchi sifatidagi badiiy mahorati va o‘zbek adabiyotida o‘zining betakror uslubi orqali nom qozonganligi uning asarlari tahlili orqali yoritib berilgan.*

Kalit so‘zlar*: uslub, obraz, bog‘lovchi, fe’l, takroriy so‘zlar, maqol va iboralar.*

Abstract: *This article highlights the artistic skills of the prolific writer Togay Murod as a writer and his unique style in Uzbek literature through an analysis of his works.*

Keywords: *style, image, conjunction, verb, repeated words, proverbs and expressions.*

Аннотация: *В этой статье освещаются художественные навыки известного писателя Тогая Мурода и его уникальный стиль в узбекской литературе посредством анализа его произведений.*

Ключевые слова*: стиль, образ, союз, глагол, повторяющиеся слова, пословицы и выражения.*

KIRISH. «Yozuvchining o‘quvchiga aytadigan dardi qancha kuchli bo‘lsa, asar tili shuncha biyron bo‘ladi».[1] Haqiqatdan ham, kitobxon o‘nlab, yuzlab kitoblarni, badiiy adabiyotlarni erinmasdan qunt bilan mutolaa qilishi mumkin, ammo shular orasidan sanoqlisigina uning qalbidan o‘rin egallaydi, yurak-yuragiga yetib boradi. Buning siri albatta, asarning tili, yozilish uslubi va undagi kechinmalarning tasviriy sa’viyasidadir. Bugungi kunning zukko kitobxoni tan olgan shunday tili biyron asarlar sirasiga «O‘tgan kunlar», “Ikki eshik orasi», «Yulduzli tunlar», «Mehrobdan chayon» kabi bir qancha kitoblarni kiritishimiz mumkin. Chunki bu asarlarning yoshi asrlarga teng bo‘lsa-da, halihanuz mutolanavislar qo‘lidan tushmay kelayotganligini inkor qilishning iloji yo‘q. Bu kitoblar to‘g‘risida qaysi bir kitobxon bilan fikrlashib qolsangiz ham albatta, asarning tili, yozilish uslubi, voqealarning ta’sir kuchi va uning tasvirlanish mahorati haqida to‘lib-toshib gapiradilar. Shu o‘rinda savol tug‘iladi. Uslub o‘zi nima? Taniqli rus faylasufi publitsist va munaqqid V.G.Belinskiy «Yozuvchining mazmun bilan shaklga quyma bir holat bag‘ishlay olish qobiliyatini va shu bilan birga hamma-hamma narsaga o‘z shaxsi, o‘z ruhini takrorlanmas, original muhrini tushirib o‘ta olish xususiyati»ni uslub deb belgilagan. O‘zbek adabiyotining buyuk dramaturgi Abdurauf Fitrat «Adabiyot qoidalari» asarida esa uslub atamasiga quyidagicha ta’rif beradi: «Bu kun Elbek, Choipon, Botu, Qodiriy, Sh.Sulaymon kabi o‘zbek adib-shoirlari bor. Bularning ifodalari, albatta, o‘zbekchadir. Biroq, u adib-shoirlarimizning asarlari o‘qulg‘anda ifodalarining bir-biridan o‘zgacharak bo‘lg‘ani ko‘runib turadir. Demak, bulardan har birining o‘ziga maxsus bir ifoda yo‘suni bor. Mana shul ifoda yo‘sunig‘a uslub deyiladir. Shoir-yozg‘uchi san’atkorlikda ko‘tarila

borg‘an sayi(n) o‘ziga maxsus bir uslub yarata boshlaydir. Shoirning xayol, o‘y, tushunish shakllari tugal, komil bo‘lg‘ach, o‘ziga yarasha bir uslub borliqqa chiqqan bo‘ladir. Uslubning adabiyotdagi o‘rni juda katta, juda muhimdir. Bir asardagi fikrlar, ma’lumotlarning eski, boshqa shoirlar tomonidan aytilg‘an bo‘lishi mumkindir. Ularning eskiligini bizga sezdirmasdan, bildirmasdan ifoda qilib, uni bizga o‘quta olg‘an kuch uslubdadir». Demak, uslub – bu har qanday ijodkorning o‘z dunyoqarashi va uni keng ommaga qay darajada yetkaza olish qobiliyatidir. Ijodkor qanchalik teran fikrlashga va badiiy mulohazakorlik mahoratiga ega bo‘lsa, uning asarlarida o‘z fikrlarini yuzaga chiqarishi ham shunchalik ifodali va jozibador bo‘ladi. Adib kitobxonga yetkazib bermoqchi bo‘lgan g‘oyaviy maqsadlarini aniq bir shakliy va ifodaviy (o‘z tafakkuri orqali) talqinlari orqali yuzaga chiqara olmas ekan, undagi badiiy qobiliyat qanchalik kuchli bo‘lmasin kitoblari va yozgan asarlari kitobxonlar mehrini qozonishiga umid qilish qiyindir.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD. O‘zbek adabiyoti zarvaraqlarida yuqorida nomlari eslab o‘tilgan asarlar mualliflaridan tashqari ham yana bir qancha, o‘z badiiy ijod yo‘liga ega bo‘lgan yozuvchi-shoirlarimiz ham yo‘q emas, albatta. Bular ichida o‘zining soddagina ijodiy merosiga egaligi bilan alohida e’tiborga molik bo‘lgan 1948-yilda azim Surxon vohasining Denov tumanida tug‘ilgan yuksak badiiy mahoratga ega adib Tog‘ay Murodni ham yodga olsak arziydi. Ma’lumki, qay bir yozuvchi to‘g‘risida gap ketganda ham avval boshda o‘sha shaxsning hayot yo‘li va faoliyati haqida ma’lumotlar keltirib o‘tiladi va keyingina ijodi haqida gapiriladi. Lekin hozir to‘g‘ridan to‘g‘ri yozuvchining ijodiy mahorati xususidagi tahlillar to‘g‘risida gapirishni va Tog‘ay Murodning yuksak iste’dodiga bo‘lgan qarashlaringiz natijasida uning hayoti va faoliyati bilan mustaqil tanishib olishingizni lozim topdik.

MUHOKAMA. Sermahsul ijodkor Tog‘ay Murod adabiyot gulshaniga shu paytgacha hech bir yozuvchi qalamida takrorlanmagan bir o‘zgacha uslub bilan kirib keldi. Uning adabiyotshunoslar tomonidan «ilk asarlaridan biri» deya talqin qilingan «Yulduzlar mangu yonadi» nomli qissasini birinchi marta mutolaa qilishga kirishgan o‘quvchi «Men qissa janridagi asarni o‘qiyapmanmi yoki doston?» - degan shubhaga boradi. Nafaqat bu asar, balki «Oydinda yurgan odamlar», «Ot kishnagan oqshom», «Otamdan qolgan dalalar» asarlarini ham adib xuddi xalq og‘zaki ijodi namunalarining, ayniqsa, dostonlarning yozilish san’atidan, tavsif va ta’sir qilish o‘rinlarida xuddi dostonlardagidek ohang va tildan ruhlanib qog‘ozga tushirgandek tuyuladi. Ming marta takrorlagandan bir marta isbotlagan afzal, albatta. Yozuvchi «Oydinda yurgan odamlar» qissasida Oymomo obraziga to‘xtalarkan, «Bug‘doyrang bo‘ldi, Barchin yuzli bo‘ldi, saraton yulduzli bo‘ldi, parishon zulfli bo‘ldi»[1] deya takrir san’atidan mohirona foydalanib, ortiqcha badiiy to‘qimalarga yo‘l bermasdan qisqa va lo‘nda, aniq va ravshan tasvirlagan. Odatda xalq dostonlarida («Alpomish», «Ravshan», «Rustamxon»...) ayollar tasvirlanuvchi jumlalarda bir-biriga qofiyadosh yoki ohangdosh so‘zlarning ishlatilishi Tog‘ay Murod asarlarida ham sezilarli ahamiyat kasb etgan. Bundan tashqari asardagi «Hamisha qayqayib-qayqayib yurmish oti, hamisha ko‘krak kerib-ko‘krak kerib yurmish oti boshi xam bo‘lib-xam bo‘lib qadamladi. Yerga tumshuq berib-tumshuq berib qadamladi. Yerga ko‘z tikib-ko‘z tikib qadamladi», - jumlalarida adib takroriy so‘zlardan takror va takror foydalanib voqeaning ta’sir kuchini shu darajada sezilarli yetkazib bera olganki, gapni «hamisha qayqayib, ko‘krak kerib yurmish oti boshi xam bo‘lib, tumshuq kerib...» deya sodda shaklga olib kelib o‘qisak ta’siri yo‘qoladigandek go‘yo. Qoplonbekning ota-onasidan ajralgandagi holatini yozuvchi «endi yolg‘iz suyanchig‘idan-da ajraldi. Yolg‘iz yupanchidan-da ajraldi. Yolg‘iz panohidan-da ajraldi», - demasdan lo‘ndagina qilib: «Endi yolg‘iz suyanchig‘i, yupanchi-yu panohidan-da ajraldi»,- deb qo‘yaqolganida ham bo‘lardi, ammo Sokolovning «Uslublar nazariyasi» (1968) kitobida ta’kidlanganidek: «Uslubning barcha elementlari qandaydir bir badiiy qonunga bo‘ysunadi. Aynan ushbu badiiy qonunga binoan har bir o‘ziga xos uslub o‘ziga xos elementlarga ega. Ya’ni biz shu uslubdan bitta elementni olib tashlasak yoki almashtirsak, u holda u buziladi yoki butunlay yo‘q qilinadi»[1]. Asarni mutolaa qilish jarayonida diqqat bilan kuzatib borsangiz Tog‘ay Murod bironta joyida ham kesimlar o‘rnida *-u, -yu, -da* bog‘lovchilaridan foydalanmagan. Uning asarlaridagi aynan fe’l so‘z turkumiga urg‘u berilishi, aynan fe’llarning takroriy tarzda

qo‘llanilishining o‘zi ham adib qalamining betakror uslubga ega ekanligini isbotlab beradi.

NATIJALAR . «Otamdan qolgan dalalar» romanini ham muallif aynan shu yuqorida aytib o‘tilgan takroriy so‘zlar, takroriy birikmalar tilida yozib, ixcham va ravshan, esda qolib ketarli darajaga erishadi. Misol uchun: «El Oqpodshoni bo‘g‘ib-bo‘g‘ib o‘ldiradi. El Oqpodshoni bo‘g‘izlab-bo‘g‘izlab o‘ldiradi. El Oqpodshoni pichoqlab-pichoqlab o‘ldiradi».

Yozuvchining yutug‘i faqatgina uning ajabtovur uslubdan foydalanishida emas, uning yutug‘i asarlarida faqatgina adabiy til bilangina chegaralanib qolmasdan o‘zi tug‘ilib o‘sgan vohasiga oid shevalardan ham foydalanib siz-u bizga yetkazmoqchi, ong-u shuurimizga singdirmoqchi bo‘lgan g‘oyani oson va tushunarli qilib yetkazib bera olganidadir. Ijodkorning «Ot kishnagan oqshom» qissasini o‘qish jarayonida kitobxon yozuvchining xalq maqollaridan, matal va iboralardan ham mohirona foydalanganligining guvohi bo‘ladi. Yozuvchi biror voqeani aytib o‘tish asnosida gapni cho‘zib, chaynalib o‘tirmasdan: «Bo‘lmaganga bo‘lishma», «Kal o‘zini ovutar, qo‘ltig‘ini sovutar», «Aslini demay so‘z demaslar, naslini bilmay qiz bermaslar», «Ko‘ngling bilan eshit, quloq aldaydi, aqling bilan ko‘r, ko‘z aldaydi» kabi maqol va matallarni o‘rni-o‘rnida qo‘llab ham qisqalik, ham odillikka erishadi. Chunki xalq maqol-matallari ajdodlardan-avlodlarga o‘tib kelayotgan, ota-bobolarimizning kundalik hayotida ko‘rgan-kechirganlari natijasida yuzaga kelgan haqiqatlardir. Jumladan, Tog‘ay Murod «Oydinda yurgan odamlar» qissasida Qoplonbekning tilidan aytilgan: «Olisning palovidan yaqinning sho‘rvasi yaxshi» maqolini «Otamdan qolgan dalalar» romanida «Olisning sho‘rvasidan yaqinning yovg‘oni yaxshi» shaklida qo‘llaydi va ikkala asarda ham shu jarayondagi vaziyatni xolisona ifodalashga muvaffaq bo‘ladi.

Tog‘ay Murod kesimlar silsilasida so‘roq gaplarni ham takror qo‘llash orqali g‘alizliklarni ravshanlashtirishga erishadi. Masalan, «So‘fi Olloyor kim bo‘ldi? Nima uchun kindik qoni tommish yurti, bola-baqrasini tashlab ketdi? Nima uchun borajak manzilini aytmadi?» («Oydinda yurgan odamlar»)

«Endi senga nima deyin? Ot g‘arq terga botsa, suv ichirib otxonaga bog‘lab bo‘lmaydi deyinmi? Mabodo ichirsa, hiyla yo‘l yurish lozim bo‘ladi, bo‘lmasa otga suv tushadi deyinmi? ... (gapda «deyinmi?» savolini sakkiz marotaba ishlatadi) va hokazo («Ot kishnagan oqshom»).

XULOSA. Bir so‘z bilan aytganda, Tog‘ay Murod adabiyot bo‘stoniga Surxon vohasining o‘zgacha bir ruhini, dunyoqarashini olib kirdi. Asarlarida ortiqcha shuhratparastlikka, shaxslararo tengsizlikka yo‘l qo‘ymaydi. Xo‘sh, bu bilan nima demoqchimiz? Ya’ni, Tog‘ay Murodning asarlaridagi bu o‘zgacha til uning Surxondaryo vohasida tug‘ilganligiga ishorami? Aynan Surxondaryolik yozuvchilarning ijodiy mahorati shu uslub bilan bog‘liqmi? Yo‘q. Surxondaryo vohasidan yetishib chiqqan Shukur Xolmirzayev, Erkin A’zam, Usmon Azim, Sirojiddin Sayyid kabi yozuvchi va nosir-dramaturglarimizning asarlariga nazar tashlaydigan bo‘lsak Tog‘ay Murod asarlaridagi til va ohangning bu yozuvchilar ijodida takrorlanmasligining guvohi bo‘lamiz. Maqolamiz ibtidosidagi O‘tkir Hoshimovning ta’biriga ko‘ra Tog‘ay Murod o‘z dardini, ya’ni asarlaridagi g‘oyaviy mazmunni avlodlarga o‘zining betakror, biyron tili orqali meros qilib qoldirish baxtiga muyassar bo‘ldi. Oddiy va jaydari obrazlar orqali o‘z xalqining o‘zligini o‘zgalarga ham qiyinchiliksiz anglata oldi. Tog‘ay Murod adabiyot sarchashmasida eng ko‘p takroriy so‘zlardan va fe’llardan ustamonlik bilan foydalangan va yangicha bir uslubni yarata olgan yozuvchi sifatida gavdalandi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Abdurauf Fitrat. Tanlangan asarlar. Toshkent: Ma’naviyat, 2009.
2. Тоғай Мурод. Отамдан қолган далалар (роман). Шарқ нашриёт-матбаа концернининг бош таҳририяти. Тошкент — 1994 йил.
3. www.ziyouz.com кутубхонаси. От кишнаган оқшом (қисса). Тоғай Мурод.
4. Yulduzlar mangu yonadi/Qissalar. — T.: Sharq, 2009. — 320 b.
5. Тоғай Мурод. Ойдинда юрган одамлар. Қиссалар, ҳикоялар. — Т.: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1985. — 160 б.
7. O‘tkir Hoshimov. Daftar hoshiyasidagi bitiklar.
8. Sokolov. Uslublar nazariyasi. 1968.